

SOLNOMASI

HAR CHORAKDA BIR MARTA CHOP ETILADI



«TURKIY TILLI YOSHLAR»

XALQARO FESTIVALI



QO'QON UNIVERSITETI NUFUZLI FESTIVALGA MEZBONLIK QILDI

Turkiy xalqlarning moddiy va madaniy merosini asrab-avaylash, rivojlantirish hamda kelajak avlodlarga yetkazib berishda turkiyzabon mamlakatlar hamkorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday hamkor-

lar va turnirlar o'tkazish turkiy xalqlar o'rtasida madaniy-ma'naviy jarayonlarni, do'stlik aloqalarini bir qadar yuksaklarga ko'taradi.

Qo'qon universitetida 11-15-iyul kunlari bo'lib o'tgan «Turkiy tilli yoshlar xalqaro festivali» madaniyat va san'at sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bilan bir qatorda, xalqlarimiz o'rtasidagi qar-doshlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qildi. Mazkur festival Farg'ona viloyati hokimligi, Madaniyat va turizm vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Xalqaro Turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Asosiy tadbirlar Qo'qon universiteti hududida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan xalqaro

festivalga respublikamizning barcha hududlaridan, shuningdek, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Turkiyadan jami 200 nafardan ziyod faol yoshlar va talabalar tashrif buyurdi.

Festival doirasida kitobxonlik kuni, milliy va etnosport turlari bo'yicha sport musobaqalari, madaniy-ko'ngilochar tadbirlar, yoshlar uchun biznesni tashkil qilish, hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash bo'yicha davra suhbatlari, yoshlar bilan taniqli teatr va kino ijodkorlarining ijodiy muloqotlari ham tashkil etildi.

Bundan tashqari, Qo'qon universiteti mezbonlik qilgan «Turkiy tilli yoshlar» xalqaro festivali ochilish marosimidagi modalar namoyishi,

kuy va qo'shiqlar ijro etilishi tantanalarga boy festivalni ko'tarinki ruhda o'tishiga xizmat qildi. Mazkur festivalni Farg'ona viloyati hokimining turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar mas-



lik natijasi o'laroq, ushbu sohada qo'shma ilmiy-texnik tadqiqotlar olib borish, seminarlar, konferensiyalar, simpoziumlar, kongresslar, soha tadqiqotlari, ko'rgazmalar, tanlovlar, festivallar, konsert-



lari bo'yicha o'rinnbosari **Xurshidjon Ahmedov**, Madaniyat va turizm vazirligi boshqarma boshlig'i **Zarrina Abdullayeva** va Qo'qon shahar hokimi **Ma'rufjon Usmonovlar** ochib berdi.



“TURKIY TILLI YOSHLAR XALQARO FESTIVALI”



Har ikki yilda bir marotaba o'tkaziladigan **“Turkiy tilli yoshlar xalqaro festivali”**ning 2023-yil Qo'qon shahrida o'tkazilishi

va etnosport turlari bo'yicha sport musobaqalari bo'lib o'tdi. Festival ishtirokchilari minifutbol, voleybol, badmington, stol tennisi,

turizm infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikada to'rtta asosiy turistik mintaqaga bo'lib, ularning ichida

o'rtasida do'stona aloqalarni o'rnatish kabi maqsadlarda o'tkazilgan festival dasturiga muvofiq ishtirokchilar Rishton xalqaro kulolchilik markazida



katta shodiyonaga aylandi. Ayniqsa, mazkur festivalga Qo'qon universitetining mezbon bo'lishi butun universitet uchun yuksak e'tirof bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Yoshlarga festival doirasida **sport musobaqalari, mahorat darslari, B2B uchrashuvlar, davra suhbatlari va diqqatga sazovor joylarga sayohatlar** tashkil etildi.

Xususan, **“Turkiy tillari yoshlar”** xalqaro festival dasturiga muvofiq Qo'qon universitetida milliy

basketbol kabi sportning bir qancha turlari bo'yicha yakkalik va jamoaviy bahslarni olib borishdi.

Shuningdek, dastur doirasida yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish maqsadida kitobxonlik kuni ning tashkil etilishi barcha ishtirokchilarga manzur bo'ldi. Festival ishtirokchilari bir-birlariga ilm-fan durdonalarini to'lib-toshib so'zlab berdi va asar yuzasidan o'zaro fikr almashildi.

Ma'lumki, bugungi kunda yurtimizda

Farg'ona turizm mintaqasi o'ziga xosligi bilan chetdan kelgan mehmonlarda o'ziga taassurot qoldiradi. Ayniqsa, bu yo'nalishda Qo'qon shahrining qadimiy me'morchilik obidalarini, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati mahsulotlari barcha turistlarni o'ziga jalb etadi.

Shu sababdan, turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlik aloqalarini targ'ib qilish, ushbu davlatlar yoshlari

bo'lishdi. U yerda mohir kulollar yasagan eng sara va nodir kulolchilik asarlaridan bahramand bo'lishdi.

Festival ishtirokchilari hordiq chiqarishida, ayniqsa, teatrlarning ahamiyati katta. Qo'qon shahar musiqali drama teatrida turkiy tilli yoshlar jonkuyar aktyorlar ijrosida **“Furqat”** spektaklini tomosha qilishdi. Barcha ishtirokchilar yuzida mamnunlik qiyofasi aks etdi.



FESTIVAL BILAN BIR VAQTDA QO'QON UNIVERSITETI TALABALARINING BITIRUV KECHASI BO'LIB O'TDI

Qo'qon universiteti talabalarining bitiruv kechasi bu yil ham Qo'qon xoni Xudoyorxon o'rdasida o'zgacha tarzda, o'zgacha kayfi-



yatda bo'lib o'tdi. Chunki universitet talabalarining bitiruv kechasi "Turkiy tili yoshlar" festivali bilan bir

ning turizm, sport, madaniyat, madaniy meros, va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinbosari **Xurshid Ahmedov** va Qo'qon universiteti rektori **Sung Joon Lee** ochib berdi.

Universitet talabalarining bitiruv kechasi ustoz va havaskor san'atkorlarning kuy va qo'shiqlari, raqqosalarining ijrosi, turli badiiy chiqishlar uyg'unligida barcha tomoshabinlarga ko'tarinki kayfiyat taqdim etdi. Mehmonlar, talabalarining yuzidagi

hokimining turizm, sport, madaniyat, madaniy meros, va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinbosari **Xurshid Ahmedov**, Qo'qon shahar hokimi **Ma'rufjon Usmonov**, Qo'qon universiteti rektori **Sung Joon Lee** hamda universitet direktori **G'afurjon Zaxidovlar** topshirdi. Albatta, bunday lahzalarni ta'riflashga til o'jiz. Har bir talaba diplomni qo'lga olar ekan, butun vujudidagi quvonch, yuksak maralarga in-

va turizmni boshqarish, menejment, moliya, iqtisodiyot, boshlang'ich ta'lim, xorijiy til va adabiyoti va maktabgacha ta'lim yo'nalishining 274



nafar talabalarini bitirdi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishidan farqli o'laroq, qolgan yo'na-




vaqtga to'g'ri keldi. Shu sababdan "Turkiy tili yoshlar" festivalining yopilish marosimi Qo'qon universiteti talabalarining bitiruv kechasiga ulanib ketdi. Mazkur kechani Farg'ona viloyat hokimi-



quvonch kechaning so'ngigiga qadar tark etmadi.

Bitiruvchilarga bakalavr diplomini Farg'ona viloyat



tilish hissi ularning yuz-ko'zida aks etib turardi.

Joriy o'quv yilida Qo'qon universitetini mehmonxona



lish talabalarining quvonchi ikki hissa ortiq bo'ldi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Sababi bu talabalar o'zi nihoyasiga yetkazgan yo'nalishning birinchi qaldirg'ochlari hisoblanadi.

Graduation party 2023



Sung Joon Lee,
Qo'qon universiteti rektori

"Bitiruvchi talabalarimiz mamlakat taraqqiyoti uchun yetuk kadr bo'lishlariga, biz ustozlar va ota-onalar ishonchini oqlashga ishonamiz. Bugungi festival esa oliygohimiz bitiruv kechasi bilan uyg'unlashib ketgani quvonchimizni ikki karra oshirdi. "Qaysi davlatning kelajagini bilmoqchi bo'lsang, uning yoshlariga boq", – deydi koreyslar. Bu o'g'il-qizlarning ishtiyoqi va intilishi ana shu yorqin istiqboldan darak bermoqda."



QO'QON UNIVERSITETIGA MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASI RAISING TASHRIFI BO'LIB O'TDI

Markaziy saylov komissiyasi raisi **Zayniddin Nizamxodjayev** mas'ullar bilan uchrashib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi saylov uchastkalari binolarini tanlash va jihozlash, saylovga yuqori saviyada tayyorgarlik ko'rish borasida oldinda turgan vazifalarga tashrif chog'ida to'xtalib o'tdi.

Shu bilan birga, Markaziy saylov komissiya raisi "Muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi komissiyalar a'zolarining malakasini



oshirishni tashkil etish Konsepsiyasi" asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi tashkilotchilari, xususan, okrug va uchastka saylov komissiyalari a'zolarining nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash, o'quv-uslubiy mashg'ulotlar tashkil etishning ahamiyatini ta'kidlab o'tdi.

Bundan tashqari, Zayniddin Nizamxodjayev saylovni umume'tirof etilgan xalqaro tamoyillar, ilg'or milliy va xorijiy tajriba asosida o'tkazish borasida qator tavsiyalar berdi.

FARG'ONA VILOYATI REKTORLARI EZGU MAQSAD ATROFIDA BIRLASHDILAR

Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta'lim bo'yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga, oliygohlarimiz sonini 77 tadan 212 taga yetkazishga erishganimiz, hech shubhasiz, eng muhim yutug'imizdir

Shavkat Mirziyoyev

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda

nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasav-

vur qilib bo'lmaydi. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida ham professor-o'qituvchi talabalar uchun bir qator qulayliklarni yaratib bermoqda.

Farg'ona viloyatida ilk bor Qo'qon universitetida **"Raqamli texnologiyalar – Uchinchi Renessans poydevori"** mavzusida forum o'tkazildi.

Anjuman doirasida dastlab viloyatdagi barcha oliy

ta'lim muassasalari rektorlari ishtirokida "Rektorlar forumi" tashkil etildi.

Sammitda universitetlarning jamiyat va iqtisodiyotdagi ahamiyati jadal o'zgarib borayotgan paytda, raqamlashtirish ta'lim va boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar yaratishi, ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilishni osonlashtirishi e'tirof etildi.



Rektor o'z so'zida raqamlashtirishning afzalliklari ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsga qaratilgan ta'lim va yangi o'qitish usullaridan keng foydalanishni o'z ichiga olishi, universitetlarning o'quv dasturlari, professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va resurslarini boshqarishni osonlashtirishini ta'kidladi va sammit ishiga muvaffaqiyat tiladi.

Rektorlar sammitida zamon bilan hamnafaslik, yangi raqamli imkoniyatlardan foydalanish,

"E-University" tizimini joriy etgan holda, ochiq, shaffof ta'lim muhitini yaratish, ta'limni raqamlashtirishni jadallashtirish borasida o'zaro fikr va g'oyalar almashildi hamda oldinda turgan muhim vazifa va masalalar muhokama qilindi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, bunday forumlarning o'tkazilishi bugungi kunda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, uning qulay imkoniyatlaridan foydalanishda katta ahamiyatga ega.



QO'QON UNIVERSITETIDA TASHKIL ETILGAN 180 VA 181-SAYLOV UCHASTKLARIDA OVOZ BERISH JARAYONLARI BO'LIB O'TDI

Joriy yilning 9-iyul sanasida mamlakatimizda navbatdan tashqari prezident saylovlari bo'lib o'tdi. Qo'qon universitetida



prezident saylovlariga ovoz berish jarayonlari tashkil etilgan 180 va 181-saylov uchastklarida o'tkazildi. **180 va 181-saylov uchastklaridagi** saylov jarayonlarida aholining siyosiy faolligi yaqqol o'z aksini topdi. Bu esa aholiga o'zining siyosiy imkoniyatini yuzaga chiqarishida muhim ahamiyat kasb etdi. E'tiborlisi, saylov uchast-

kasiga Qo'qon shahar hokimi Ma'rufjon Usmonov ham tashrif buyurdi va o'zi munosib ko'rgan nomzodiga ovoz berdi. Yakunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan prezidentlik saylovining dastlabki natijalariga ko'ra **Shavkat Mirziyoyev 87.05 %** ovoz bilan qayta prezidentlikka tasdiqlandi.



TURK DUNYOSI UNIVERSITETLARI ITTIFOQI VAKILLARI SAMARQANDDA UCHRASHDILAR

Turkiy davlatlar tashkilotining Turk dunyosi universitetlari ittifoqi (TURKUNIB)ning maxsus yig'ilishi bo'lib o'tdi.

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mezbonlik qilgan yig'ilishda tashkilotga a'zo davlatlarning 50 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Qo'qon universiteti vakillari va ekspertlar ishtirok etdilar.

Ushbu muhim voqea Turkiya va boshqa Turkiy davlatlar tashkiloti a'zosi bo'lgan mamlakatlarning yetakchi universitetlari vakillarini har taraflama fikr almashinuvlar

asosida va oliy ta'lim sohasida hamkorlik qilish yo'llarini izlash uchun birlashtirdi. Tadbirda akademik hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash, tajriba va bilimlarni almashish hamda qo'shma ta'lim va tadqiqot dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatlari haqida so'z yuritildi.

Anjumanda Turkiy davlatlar tashkilotining Turk dunyosi universitetlari ittifoqi o'rtasidagi hamkorlik va do'stlikni mustahkamlash, ta'limni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqotlar bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.



Ma'lumot o'rnida, Turk dunyosi universitetlari ittifoqi kengashi 2013-yilda tashkil etilgan bo'lib, Qozog'iston, Turkiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, O'zbekiston va Vengriyadan 40 dan ortiq a'zosi bor.



Turk dunyosi universitetlari ittifoqiga a'zo oliy ta'lim muassasalarida umumiy ta'lim standartlarini ishlab chiqishni maqsad qilganmiz. Yuqori sifatli ta'limni ta'minlash uchun, avvalo, ta'lim standartlarini takomillashtirish zarur. Shuningdek, universitetlar o'rtasida talabalar almashinuvi, amaliyot dasturlarini yaratish, almashinuv uchun stipendiyalar ajratish imkoniyatlari o'rganiladi.

Sa'di Ja'farov,
Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibining o'rinbosari

"TEXNOFEST" TANLOVINING UNIVERSITET BOSQICHI O'TKAZILDI

Qo'qon universitetida talaba-yoshlarning muhandisli texnologiyalarga doir g'oya va tashabbuslarini namoyon etish hamda rag'batlantirishga qaratilgan "Texnofest" tanlovining universitet bosqichi bo'lib o'tdi.

TEXNOFEST texnologiy-



ya tanlovlarini o'tkazishdan asosiy maqsad yoshlarning milliy texnologiyani ishlab chiqarish va rivojlantirishga qiziqishini oshirishga qaratilgan.

Talabalar jamoalarining 8 ta loyihalari hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqildi va xolis baholandi. **"Aqli yo'lboshlovchi"** loyihasi 1-o'rin, **"Qutqaruv droni NFC"** loyihasi 2-o'rin va **"VIP TRIP"** loyihasi egalari 3-o'ringa sazovor bo'ldilar.

Albatta, bunday fes-

tivallarni muntazam ravishda o'tkazilib borishi talaba-yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarishda muhim omil hisoblanadi.

Yakunda g'oliblar sertifikat va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar hamda tanlovning respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdilar.



IT-FORUM: ILG'OR TEKNOLOGIYA VA TAJRIBALAR O'RGANILDI

Qo'qon universitetida "Raqamli texnologiyalar – Uchinchi Renessans poydevori" mavzusidagi anjuman doirasida Farg'ona vodiysida ilk bor "IT-forum" o'tkazildi.

IT sammitida viloyatning raqamli texnologiyalar bo'yicha yetakchi mutaxassislari, IT Park rezidentlari, xalqaro frilanserlar, Ismoilxon Shodmonov boshchiligidagi "Intellectual Software Technology" biznesni dasturlash markazi, Shohruh Mirzasharipov boshchiligidagi "Teamwork IT Solutions" vakillari

ishtirok etdilar.

Shuningdek, Oybek Botirov boshchiligidagi "Mohirdev" biznesni rivojlantirish bo'limi, Bunyodbek Husanov boshchiligidagi "iTeach Academy", onlinedars.uz, Jahongirmirzo Mamatqodirov boshchiligidagi "Najot Ta'lim markazi" hamda "Faraway" xalqaro (AQSH) kompaniyasi mutaxassislari qatnashdilar.

IT Park Farg'ona filiali direktori Bahrom Jalilovdan "Zamonaviy kasblar sohasining Farg'ona viloyatidagi o'rni va istiqbollari" mavzusida motivatsion ma'ruza tinglandi.

Shuningdek, forumda IT biznesiga kirish, chet el kompaniyalarida dizaynerlik faoliyatini amalga oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari,

raqamli iqtisodiyot, kreativ tadbirkorlik, xorijiy platformalar orqali bilimlar sotib, daromad topish yo'llari xususida taqdimotlar tinglandi. Amaliyotchi mutaxassislari, soha yetakchilarining tajriba va saboqlari bilan tanishildi.



RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR —

III RENESSANS POYDEVORI

REKTORLAR FORUMI

IT-FORUM

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



TURKSOY BOSH DIREKTOR O'RINBOSARI TASHRIFI!

Qo'qon universitetiga Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) bosh direktor o'rinbosari, **Volkan Yesilay** tashrif buyurdi.

Universitet direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, G'afurjon Zahidov mehmonga ta'lim dargohidagi o'qituvchilar va talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishtirdi.

Bundan tashqari, tomonlar

turkiy dunyo madaniyati va merosini asrab-avaylash maqsadida ushbu sohada qo'shma ilmiy-texnik tadqiqotlar olib borish, seminarlar, konferensiyalar, simpoziumlar, kongresslar, soha tadqiqotlari, ko'rgazmalar, tanlovlar, festivallar, konsertlar va turnirlar tashkil etish hamda o'zaro ilmiy yo'lida uzoq hamkorlikka qilishga kelishib oldilar.



NAMANGAN VILOYATIDA TARG'IBOT-TASHVIQOT ISHLARI



Universitet vakillari Maktab va maktabgacha ta'lim tizimida ishlovchi – tarbiyachilar, mudiralar hamda kasb-hunar kolleji bitiruvchilariga Qo'qon universitetining faoliyati, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun yaratilgan mavjud imkoniyatlar, ta'lim sifati to'g'risida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bormoqda.

Ana shunday seminar-trening mashg'ulotlari Qo'qon universiteti vakillari tomonidan test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan abituriyentlariga 27–31-iyul kunlari Namangan viloyati **Oydinko'l pedagogika kolleji**da olib bo-

rildi.

Ma'lumot uchun, mazkur seminar-trening Qo'qon universiteti hamda Namangan viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi o'rtasida imzolangan memorandum ijrosini ta'minlash hamda Namanganda abituriyentlar bilan bo'lgan uchrashuvda bildirilgan taklif va istaklarga binoan tashkil etilmoqda.

Mazkur seminar-treningda doirasida Qo'qon universiteti vakillari namanganlik abituriyentlarga talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar hamda shart-sharoitlar to'g'risida ma'lumotlar berishmoqda.

TALABAMIZ IJODIDAN



Gullola Xolmatova – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Bolaligidan kitob mutolaa qilishga, she'r yozishga, til o'rganishga qiziqadi. Respublika miqyosida o'tkaziladigan tanlovlarda faol qatnashadi. Xususan, Zulfiya mukofoti ishtirokchisi, Yosh kitobxon tanlovida faxrli o'rnlarni egallagan. Hozirda darsdan tashqari grafik dizayner kursi-ga qatnamoqda.

VATAN

Vatan muqaddassan, Vatan azizsan.
O'zing sajdagoh-u, Ona zaminsan,
Barkamol avlodmiz, sha'ning oqlaymiz.
Tumorday asraymiz, noming saqlaymiz.

Ko'kka bo'y cho'zmoqda Shavkat-u shoning,
Seni ulug'layman har dam, har onim.
Sayyoralar aro mangudir noming,
Mening yurak qo'rim O'zbekistonim.

Sen aziz go'shamsan, Ey Ona yurtim.
Madhingni kuylay deb baytlarim botdim,
Sen o'zing erursan nurlik iqbolim,
Doimo tinch, bo'lg'in Muqaddas yurtim.

KO'ZDA YOSHING ESLATIB ONAM.

Osmon bormi senda dard alam.
Yig'lamasang buncha bag'ring qon,
Tilkalaydi bag'rimni har on.
Ko'zda yoshing eslatib onam.

Zaharxanda kulganda borliq.
Seni ko'ngling bo'lsa ham bo'liq,
Iffat ila turgaysan sen ham,
Ko'zda yoshing eslatib onam.

Yetmasmidi to'kilgan yoshlar
Yoki kammi ayuxannoslar?!
Dunyo bir kun o'tib ham ketar,
Yig'lama bas shunchasi yetar.

Gullola Xolmatova, Qo'qon universiteti talabasi.

KOREYANING KUNSAN MILLIY UNIVERSITETI QO'QON UNIVERSITETI BILAN O'ZARO HAMKORLIK QILADI



Joriy yilning 3-may sanasida **Kusan Milliy universiteti** va **Qo'qon universiteti** vakillari o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuv yakunlari bo'yicha ikki universitet xalqaro akademik va talabalar almashinuvi hamda ularning amaliyotini

balariga global amaliyot o'tash imkoniyatini berish kabi sanoat-akademik hamkorlikka asoslangan o'quv dasturini amalga oshirish kutilmoqda.

Shuningdek, shartnomada **bakalavriat (2+2), magistratura (1+1), bakalavriat va**



qo'llab-quvvatlash, universitet faoliyatini kengaytirish maqsadida o'zaro anglashuv memorandumini imzoladilar.

Memorandumga ko'ra, endilikda ikki universitet fan va muhandislik ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlash, o'qishdan keyingi bandlikni rag'batlantiruvchi o'quv dasturlari, ikki tomonlama (dual) daraja tizimini rivojlantirishda faol hamkorlik qilish yo'llarini chuqur muhokama qildilar.

Har ikki universitet tala-

magistratura (2+2+1,5) ikki darajali tizim orqali har ikki davlatning iqtidorli talabalari jahon miqyosidagi iste'dod egalari etib tarbiyalanishi ko'zda tutilgan.

Shu bilan birgalikda, Kusan Milliy universitetida ikki darajali ta'lim tizimi orqali o'qishni tamomlagan talabalar tegishli ishchi vizasini olgan holda Koreya sanoat korxonalarida o'z sohalari bo'yicha ishlash imkoniyatiga ham ega bo'lislari mumkin bo'ladi.

BELGIYA TA'LIM KENGASHI DIREKTORI OKSANA POZDNYAKOVA TOMONIDAN SEMINAR-TRENING TASHKIL ETILDI.



Joriy yilning 24-25-iyul kunlari Belgiya ta'lim kengashi direktori **Oksana Pozdnyakova** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tashrif buyurdi.

"Innovatsiya va bilimlarni tijoratlashtirish, universitetlarda tadbirkorlik ekotizimini qurish" bo'yicha tashkil etilgan seminar-ga Qo'qon universitetidan vakil bo'lib Ta'lim sifatini nazorat qilish depar-

tamenti boshlig'i **Ganiyeva Muborak Adilovna** ishtirok etdi.

Seminar-treningda Oksana Pozdnyakova Markaziy Osiyo professor-o'qituvchilarining bilim salohiyatiga yuksak baho berib, ularning Yevropada malaka oshirishi hamda universitetlarning imijini ko'tarish, kadrlar sifatini yaxshilash borasida o'zining fikrlarini bildirib o'tdi.



QO'QON UNIVERSITETIDA VOYAGA YETMAGANLAR VA YOSHLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISH YUZASIDAN UCHRASHUV BO'LIB O'TDI

Qo'qon universitetida 2-sektor rahbari Qo'qon shahar prokurori Ulug'bek Hamdamov Aslanovich mazkur sektor hududida istiqomat qiluvchi ishsiz hamda voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi tushuntirish ishlarini olib bordi.

Uchrashuvda Ulug'bek Hamdamov Qo'qon shahrida o'tgan 6 oyda 290 ta jinoyat sodir etilgani, ularning ichida 65 nafar voyaga yetmaganlar ishtirok etganini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, yoshlarni

kelajakda ilm olishga, vaqtini behuda o'tkazmaslikka, kitob mutolaa qilishga da'vat etdi.

Bundan tashqari, Qo'qon universiteti mutasaddilari tomonidan talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar hamda ayni paytda qabul jarayonlari keta-yotganligiga to'xtalib o'tildi.

Uchrashuv davomida yoshlarning muammolari o'rganilib, ularning qiziqtirgan savollariga javob berildi hamda kelgusi ishlarida, xususan, o'qishga kiradigan bo'lsa,

shartnoma uchun to'lovlarini qo'llab-quvvatlashga sek-

tor rahbarlari tayyor ekanligi bildirildi.



KITOB – HAYOTNI YARATUVCHI MURABBIY


Mamlakatimizda yoshlarni keng tafakkurli, bilimli va barkamol qilib tarbiyalash, ma'naviyatini yuksaltirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha bir qator islo-

hotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston

Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini **“Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”**da amalga oshirishga oid Dav-

lat dasturi ijrosini 2-bandiga muvofiq Qo'qon universitetida talabalarning ilm ziyosidan bahramand bo'lishi uchun quyidagi darslik, o'quv qo'llanmalar nashr etildi:



1. Universitetda talabalar uchun Xalqaro Nordik universiteti bilan hamkorlikda **“Xalqaro moliya”** darsligini chop ettirdi. Darslik xalqaro moliyaga kirish, iqtisodiy modellar, xalqaro institutlar faoliyati - umumiy moliya munosabatlarining barcha jihatlarini qamrab olgan. Bundan tashqari, darslikni o'qib-o'rganish davomida to'liq bandlik, davlat byudjeti, milliy daromad kabi yuzlab tayanch iboralarga sharhlar bilan ham tanishish mumkin;



2. Qo'qon universitetining Ta'lim kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan navbatdagi o'quv qo'llanma nashr etildi. Ushbu **“Til va nutq” rivojlantirish markazidagi ta'limiy faoliyatni rejalashtirish** qo'llanmasida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlovchi bo'lajak pedagoglar uchun muhim tavsiyalar jamlangan. Tarbiyalanuvchilarni tabiat, musiqa va ijod dunyosiga jalb qilish, savodxonlikka tayyorlash, til va nutqni rivojlantirish markazidagi ta'limiy faoliyatni samarali tashkil etish borasida kerakli bilimlar yoritilgan;



3. O'quv qo'llanma Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasida falsafa doktori (PhD), dotsent v.b. **Maxmudova Oybachin Axatovna** muallifligida **“Tasviriy faoliyat metodikasi”** nomli o'quv qo'llanma chop etildi. Ushbu qo'llanmada tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasining umumiy asoslari, maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatiga rahbarlik qilishning maqsad va vazifalari, badiiy faoliyat qobiliyatlari va ijodini tarbiyalash, oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tasviriy faoliyatiga rahbarlik qilish usullari, rasm chizish, loy ishi, applikasiya va qurish-yasashga o'rgatish metod hamda vositalari kabi masalalar yoritilgan.

Bosh muharrir
G'ofurjon Zaxidov

Matn muharriri
Sultonboy Allonov

Sahifalovchi-dizayner
Asadbek Davrboyev

Fotomuxbir
Izzatbek Ibrohimov

Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri,
Turkiston ko'chasi, 25 A-uy

(+998) 73 545 55 55

@kokanduniversity